TSUE

YASHIL

Yashil iqtisodiyot&taraqqiyot
ilmiy-elektron jurnal

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№2

Google Scholar · OPEN ACCESS · ULRICHSWEB GLOBAL SERIALS DIRECTORY · OpenAIRE · ROAD · НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU · Academic Resource Index ResearchBib · ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE · CYBERLENINKA · BASE · INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL · Crossref

ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2026

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Karimov Norboy G‘aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay’ati:
Salimov Oqil Umrzoqovich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G‘afforovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko‘nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O‘z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
Ochilov Farkhod, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig‘i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li, TDIU katta o‘qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra’no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po‘latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
G‘afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o‘qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:
Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 40
Faxriddinov Temur Faxriddin o‘g‘li

TEMIR YO‘L YO‘LLARINI TA’MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI 46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich

BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI 51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o‘g‘li

O‘ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA’MINLASH BO‘YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI 55
Mamanov Alisher Umbarovich

ENERGETIKA TARMOG‘I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH YO‘LLARI 60
Xamdamova Gavxar Absamatovna

SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI 65
Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi

IJTIMOIY OBYEKTLARDA QURILISH XIZMATLARINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOYILLARI 68
Gapparov Azim Qayumovich

QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQARISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA’MINLASH 72
Zaripov Shoxboz Alijon o‘g‘li

O‘ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIY BARQARORLIKKA TA’SIRI 75
Xolmatova Asila Menglimurod qizi

РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ 81
Н.Т. Бекназарова

BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT 86
Shaymatova Nargiza Ashurovna

NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI 93
Alimardonov G‘ayratjon Nuraliyevich

DIGITAL TWIN–BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS 99
Nelyufar Umarovna Dadabayeva

PAXTA BO‘LAKCHASINING OG‘MA TO‘RLI YUZA SIRTI BO‘YLAB HAVO OQIMI TA’SIRIDAGI HARAKATINING MATEMATIK MODELI 108
Karimov Abdusamat

АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ 115
Бабаджанов Шухрат Атхамович

“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI” 120
Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o‘g‘li

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA’SIRI 124
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

XORAZM VILOYATIDA ETNOGRAFIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING AHAMIYATI 129
Ro‘zimatova Shaxlo Baltaboy qizi

THE FEAR OF MISSING OUT (FOMO) EFFECT IN ADVERTISING AND ITS NEUROPSYCHOLOGICAL IMPACT ON IMPULSE BUYING 134
Negmatov Nodir Nozimovich

O‘ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI VA TENDENSIYALARI TAHLILI 139
Aytiyeva Sevara

TO‘QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR 144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich

YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA O‘ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI 149
Abdullayeva Matluba Nematovna, Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o‘g‘li

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI 155
Axmedov Sanjar Temur o‘g‘li

POPULATION IMPACT ON CONSUMER CULTURE AND NATIONAL ECONOMIC GROWTH 160
Rustamov Sheroz Oblokulovich

AVTOTRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI YAXSHILASHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR 164
Laylo Akbarova, Komolov Adxam Dilshod o‘g‘li

MODELING THE DIFFUSION OF DIGITAL BANKING ADOPTION IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM TBC BANK USING THE BASS DIFFUSION MODEL AND A HYBRID REGRESSION APPROACH 169
Feruza Nabieva

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK XARAJATLARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH VA BAHOLASH 176
Rabbimov Elbek Abdulloyevich, G‘afforov Ilhom Ilyosjonovich, Ergashev Olloyor Furqat o‘g‘li

O‘ZBEKISTONNING YANGI BOZORLARGA CHIQISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING INTEGRALLASHGAN MODELI 183
Baqoyev Sunnatillo Burxon o‘g‘li

O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-KONSEPTUAL ASOSLANISHI 188
Salaydinov Shodiyor Nizom o‘g‘li

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH VA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 194
Turg‘unov Nodirbek Muminjanovich

SANOAT KORXONALARI TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI 198
Jabborov Elbek Erkin o‘g‘li

SOLIQ STAVKALARINI TABAQALASHTIRISHNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANISHGA TA’SIRI 202
Abduraimova Nigora Abdugapparovna

MINTAQALAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHNI TA’MINLASHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI 208
Egamov Temur Muzaffarovich

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYAVIY RAG‘BATLANTIRISH IMKONIYATLARI 213
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich

MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O‘RNI VA OBYEKTIV ZARURLIGI 217
Achilova Firuza Kurbanovna

INVESTITSIYALARNI JALB ETISH ORQALI MAXSUS IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH 222
Ergashev Olim

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

KICHIK BIZNES INNOVATSION FAOLIYATINING RIVOJLANISHIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR 227
Amirov Zubaydulla Toir o‘g‘li

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINING O‘RNI VA AHAMIYATI 233
Isakjanova Saboxat Muhamedovna

KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA AKSIYADORLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 238
Xakimov Uchkun Xamitovich

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MILLIY MAKROIQTISODIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 242
Mardanova Ra’no Isakovna

XUSUSIY VA DAVLAT SHIFOXONALARI UCHUN RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI QIYOSIY TAHLIL 246
Yakubov Temur G‘anibekovich

RAQAMLI SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMIDA RESURS SAMARADORLIGI VA IQTISODIY NATIJADORLIK MODELI 250
Ziyodullayev Qahramon

“MILLIY TURIZM SITUATSION-MONITORING MARKAZI” VA “YASHIL TUROPERATORLAR” FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI 254
Toshev Akmal Salimovich

“MILLIY TURIZM SITUATSION-MONITORING MARKAZI” VA “YASHIL TUROPERATORLAR” FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Toshev Akmal Salimovich
Buxoro davlat universiteti
Mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada turoperatorlik korxonalari faoliyatini rivojlantirishda raqamli marketing vositalaridan samarali foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt asosida marketing jarayonlarini avtomatlashtirish, aniq ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda mijozlar bilan interaktiv aloqani kuchaytirishning ustuvor yo‘nalishlari ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari turoperatorlar uchun raqamli marketing vositalarini joriy etish orqali raqobatbardoshlikni oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va brend qiymatini mustahkamlash imkoniyatlarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: raqamli marketing, marketing vositalari, korxona raqobatbardoshligi, ma’lumotlar tahlili, avtomatlashtirish, mijozlar bilan aloqa, innovatsion marketing strategiyasi.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of the effective use of digital marketing tools in the development of tour operator companies. The study highlights priority areas for automating marketing processes based on digital technologies and artificial intelligence, making data-driven management decisions, and strengthening interactive communication with customers. The research findings reveal opportunities for tour operators to enhance competitiveness, optimize costs, and strengthen brand value through the implementation of digital marketing tools.

Key words: digital marketing, marketing tools, enterprise competitiveness, data analysis, automation, customer interaction, innovative marketing strategy.

Аннотация. В данной статье проанализированы теоретические и практические аспекты эффективного использования инструментов цифрового маркетинга в развитии деятельности туроператорских компаний. Показаны приоритетные направления автоматизации маркетинговых процессов на основе цифровых технологий и искусственного интеллекта, принятия управленческих решений на основе точных данных, а также усиления интерактивного взаимодействия с клиентами. Результаты исследования демонстрируют возможности повышения конкурентоспособности туроператоров, оптимизации затрат и укрепления ценности бренда за счёт внедрения инструментов цифрового маркетинга.

Ключевые слова: цифровой маркетинг, маркетинговые инструменты, конкурентоспособность предприятия, анализ данных, автоматизация, взаимодействие с клиентами, инновационная маркетинговая стратегия.

KIRISH

O‘zbekistonda turizm tarmog‘ining barqaror rivojlanishi va jahon turizm bozorida raqobatbardoshligini ta’minlashda turoperatorlik faoliyatining samarali boshqaruvi muhim ahamiyat kasb etib, xususan, so‘nggi yillarda mamlakatimizga tashrif buyurayotgan xorijiy turistlar sonining muntazam ravishda ortishi turoperatorlar oldiga yangidan-yangi dolzarb masalalarni hal etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Chunonchi, turistik oqimlarni muvozanatlashtirish, o‘zgaruvchan talab dinamikasi, turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish va mijozlar ehtiyojini aniq prognozlash zaruriyati yuzaga kelib, shu nuqtayi nazardan, “Milliy turizm situatsion-monitoring markazi” (MTSMM)ni tashkil etish va uni turoperatorlik faoliyati bilan integratsiya qilish, fikrimizcha, ilmiy jihatdan dolzarb yo‘nalishdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turoperatorlik faoliyatiga oid ilmiy tadqiqotlar xorijlik olimlardan E. Aguiló, J. Alegre, M. Sard, S. Hossain, M. A. Hussain, T. Ahmed, A. Calveras, S. Šimleša, D. Koutoulas, Z. Mottiar, K. Boluk, C. Kline, P. Christou, A. Farmaki, G. Evangelou, M. Trunfio, L. Petruzzellis, C. Nigro tomonidan olib borilgan bo‘lib, olimlar turoperatorlik faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan hamda turizm xizmatlari, raqamli transformatsiya, boshqaruv, raqobat, bozor strukturalari, turizm bozorida turoperatorlarning strategik roli, ta’minot zanjiri hamda turizmda intermediatsiya (vositachilik) jarayonining o‘zgarishlarini o‘rganishgan. Shuningdek, an’anaviy turoperatorlik modelidan raqamli, moslashuvchan va onlayn platformalarga o‘tish tendensiyalarini tahlil qilib, bu jarayonning iqtisodiy samaradorlik va iste’molchi xatti-harakatlariga ta’sirini baholashgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishida turoperatorlar faoliyatini rivojlantirishda raqamli marketing vositalaridan foydalanishni takomillashtirish masalasi ilmiy-nazariy va amaliy yondashuvlar asosida o‘rganildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli, tahliliy, qiyosiy va statistik usullar majmuasi qo‘llanilgan.

Avvalo, raqamli marketing konsepsiyasining nazariy asoslari, uning evolyutsiyasi va korxona boshqaruvi tizimidagi o‘rni bo‘yicha xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlil qilindi. Keyingi bosqichda marketing vositalarining, jumladan, ijtimoiy media, e-mail marketing, kontent marketing, reklama platformalarining korxona faoliyatiga ta’siri amaliy misollar asosida o‘rganildi.

Tahlil jarayonida kontent tahlili va deskriptiv statistika usullaridan foydalanilib, global va mintaqaviy miqyosdagi raqamli marketing tendensiyalari hamda ularning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Shuningdek, korxonalarda raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi, mavjud muammolar va imkoniyatlar so‘rovnomalar orqali baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turoperatorlik tizimida ma’lumotlarning real vaqt rejimida to‘planishi va tahlil qilinishi turistik xizmatlarning sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshirishini qayd etib o‘tish lozim. Xususan, O‘zbekiston bo‘ylab bugungi kunda turoperatorlar tomonidan taklif etilayotgan marshrutlarda mavsumiy nomutanosiblik mavjudligi, ya’ni yoz oylarida Samarqand va Buxoro shaharlariga turistlar oqimi 40 % gacha bo‘lgan miqdorda ortiqcha yuklanishi, biroq Qashqadaryo, Surxondaryo yoki Jizzax viloyatlarida turistik oqim yetarlicha shakllanmaganligi kuzatiladi. Markaz ushbu tafovutlarni aniqlashtirib, turoperatorlarga marshrutlarni qayta rejalashtirish va turistik oqimni hududlar bo‘yicha optimal taqsimlash imkonini yaratib beradi.

Xalqaro adabiyotlarni o‘rganish hamda xorij tajribasidan kelib chiqib, “Milliy turizm situatsion-monitoring markazi”ning tashkiliy-funksional modeli ishlab chiqildi (1-rasm).



1-rasm. “Milliy turizm situatsion-monitoring markazi”ning tashkiliy-funksional modeli[1]

1 Muallif ishlanmasi

Demak, Milliy turizm situatsion-monitoring markazining eng birlamchi vazifasi mamlakat hududiga tashrif buyurayotgan ichki va xalqaro turistlar oqimini doimiy ravishda kuzatib borishdan iborat bo‘lib, ushbu jarayon real vaqt rejimida amalga oshirilishi talab etiladi. Turistik oqimlar monitoringi nafaqat tashrif buyuruvchilar aniq sonini, balki ularning geografik mansubliligi, hududiy taqsimlanishi, turistik destinatsiyalar bo‘yicha oqim zichligi, tashrifdan ko‘zlangan maqsadlari, sarf-xarajatlar dinamikasi va sayohatgohda qolish davomiyligi kabi parametrlarni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu ma’lumotlarning muntazam to‘planib borishi turizm bozoridagi mavsumiylikni aniqlashtirish, marketing strategiyalarini to‘g‘ri asosda ishlab chiqish va turizm destinatsiyalari infratuzilmalariga tushayotgan mavjud yuklamalarni optimallashtirish uchun ilmiy asos yaratadi. Shu maqsadda chegara hududlarini kesib o‘tish, aeroport va temiryo‘l stansiyalarida yuritiladigan hisoblar, mehmonxonalarning ro‘yxatga olish tizimi, shuningdek, mobil operatorlar taqdim etadigan ma’lumotlar ham integratsiya qilinib, mazkur vazifa vaqt qatorlari tahlili, tendensiyalarni prognozlash, sohaga taalluqli o‘ta muhim voqelik hamda hodisalarni aniqlash kabi ilmiy metodlarga tayangan holda bajariladi.

MTSMMning navbatdagi muhim vazifasi xalqaro darajada tan olingan metodologiyalardan biri sanalgan “Turizm sun’iy yo‘ldosh hisoblari” (SYH)ni yuritish orqali turizmning milliy iqtisodiyotdagi aniq ulushini o‘lchashdir. Tizim turizmni yalpi ichki mahsulotdagi hissasini, turizm bilan bog‘liq yondosh sohalarda yaratilgan bandlik ko‘rsatkichlarini, davlat budjetiga tushayotgan soliqlar hajmini va eksportdan tushayotgan daromadlarni hisoblash imkonini beradi. SYHning afzalligi shundaki, u milliy hisoblar tizimi (MHT) bilan uyg‘un holda ishlaydi, natijada turizm boshqa tarmoqlar bilan qiyoslanadigan darajaga ko‘tariladi. Mazkur vazifa korxonalar moliyaviy hisobotlari, iste’mol xarajatlari, investitsiya ko‘rsatkichlari va bojxona ma’lumotlariga asoslangan holda bajarilib, bu orqali mutaxassislar turizm ulushini aniq raqamlar asosida hisoblash, ustuvor yo‘nalishlarni belgilab olish va resurslarni oqilona taqsimlash borasida aniq rejalarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Janubiy Koreyaning Seul shahri, Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay hamda Ispaniyaning Madrid shahri turizm tajribasidan kelib chiqib, qolaversa, mahalliy o‘ziga xosliklar va resurs potensialimizni inobatga olgan holda “Milliy turizm situatsion-monitoring markazi”da faoliyat olib borishi ko‘zda tutilayotgan mutaxassis xodimlar soni va tarkibi aniqlashtirildi (1-jadval).

1-jadval. “Milliy turizm situatsion-monitoring markazi” xodimlari soni va tarkibi[2]

I Boshqaruv va umumiy xizmatlar xodimlari		
Lavozimlar	Soni (nafar)	Vakolat doirasi
Direktor	1	Umumiy rahbarlik, strategik boshqaruv
Direktor o‘rinbosarlari	2	Ilmiy-tahliliy ishlar va tashkiliy-moliya yo‘nalishlari bo‘yicha
Bosh hisobchi	1	Moliyaviy boshqaruv
Kadrlar bo‘limi boshlig‘i	1	Kadrlar siyosati, malaka oshirish
Yuridik maslahatchi	1	Huquqiy masalalar
Kotibiyat va tashkiliy bo‘lim tarkibi	3	Ichki hujjatlar, kotibiyat, tashkiliy masalalar
II Asosiy xizmat yo‘nalishlari bo‘yicha xodimlar		
Yo‘nalish	Mutaxassislar soni	Tavsif
Joylashtirish xizmatlari	4	Mehmonxonalar, hostellar, sanatoriy va dam olish maskanlari monitoringi
Ovqatlanish xizmatlari	4	Restoran, milliy oshxonalar, kafelar, gigiyena nazorati
Transport xizmatlari	3	Turistik transport, logistika, charter reyslari bo‘yicha
Ko‘ngilochar xizmatlar	3	Madaniy tadbirlar, festivallar, sport va dam olish xizmatlari bo‘yicha
Madaniy-ma’rifiy xizmatlar	3	Muzey, teatr, tarixiy obyektlar monitoringi
III Tahlillar va axborotlar bazasi bo‘limi		
Yo‘nalish	Mutaxassislar soni	Tavsif
Reyting o‘rinlari va bandlik ko‘rsatkichlari tahlilchilari	3	Bandlik, ish o‘rinlari, reyting tizimini yuritish
Narxlar va sanitariya-gigiyena bo‘yicha tahlilchilar	3	Narx-navo, sanitariya-gigiyena talablari muvofiqligi nazorati va hisobi

2 Muallif ishlanmasi

Xavfsizlik va inklyuzivlik sohasi mutaxassislari	2	Turistlar xavfsizligi, imkoniyati cheklanganlar uchun qulayliklar nazorati va hisobi
Ma'lumotlar bazasi administratorlari	3	Katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash
Prognozlash mutaxassislari	3	Tendensiyalarni aniqlash va modellashtirish
IV Innovatsiya va strategik rivojlanish bo'limi		
Yo'nalish	Mutaxassislar soni	Tavsif
Strategik rejalashtirish mutaxassislari	2	Uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish
Kadrlar rivojlantirish mutaxassisi	2	Malaka oshirish, treninglar tashkilashtirish
PR va marketing xodimlari	3	Raqamli marketing, reklama va axborot kampaniyalarini olib borish
Investitsiyalar bo'yicha mutaxassis	2	Turizm loyihalariga investorlarni jalb etish va hisob-kitoblar yuritish
Risk-menejment mutaxassisi	2	Risklarni baholash va minimallashtirish

Demak, ilmiy asoslangan hisob-kitoblarga ko'ra, Milliy turizm situatsion-monitoring markazi tarkibida kamida 51 nafar xodim faoliyat yuritishi ko'zda tutilib, mazkur miqdor markazning funksional vazifalarini to'laqonli bajarishiga imkon yaratadi (2-rasm).



2-rasm. Xodimlar ulushi tahlili[3]

Bizning fikrimizcha, Milliy turizm situatsion-monitoring markazi turoperatorlar faoliyati uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan muhim institutsional mexanizm sanalib, turizm sohasida aniq va tasdiqlangan ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va ularni tahlil qilish orqali turoperatorlarga barqaror, ishonchli va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratib beradi. Birinchidan, markaz turoperatorlarning bozor konyunkturasini to'g'ri baholashiga xizmat qilgani holda, turistlar oqimi, mavsumiy talab, xalqaro turizm bozoridagi o'zgarishlar va raqobat muhitiga oid ma'lumotlarni tizimli ravishda taqdim etishi operatorlarga o'z xizmat paketlarini aniq segmentlarga moslashtirish imkonini berib, bu jarayon resurslardan oqilona foydalanish, ehtimoliy risklarni kamaytirish va marketing strategiyalarini samarali shakllantirishning tub asosi hisoblanadi.

Ikkinchidan, situatsion-monitoring markazi xavf va inqirozli vaziyatlarni oldindan aniqlashtirish hamda murakkab holatlarni nazorat qilishda turoperatorlar uchun tayanch nuqtasi hisoblanadi. Masalan, tabiiy ofatlar, fors-major holatlari yoki boshqa turli vaziyatlardagi o'zgarishlar bo'yicha tezkor monitoring va prognozlar turoperatorlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, alternativ yo'nalishlar ishlab chiqish va turistlar xavfsizligini ta'minlash imkonini beradi.

Uchinchidan, markaz turoperatorlarga innovatsion raqamli texnologiyalarga asoslangan xizmatlarni joriy etishda ko'mak berib, katta hajmdagi ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt va prognozlash modellari asosida yaratilgan tahliliy hisobotlar turoperatorlarning xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi va xalqaro bozorda yanada raqobatbardosh bo'lishiga zamin yaratadi.

3 Muallif ishlanmasi

So‘nggi yillarda global turizm sohasida ekologik barqarorlik masalasi alohida ahamiyat kasb etib, iqlim o‘zgarishlari, tabiiy resurslarning cheklangan miqdorda ekanligi, sayyohlik faoliyatining atrof-muhitga ko‘rsatayotgan salbiy ta’siri “yashil turizm” yoki “barqaror turizm” konsepsiyalarining shakllanishiga olib keldi. Shu jihatdan, biz “yashil turoperatorlar” faoliyatini yo‘lga qo‘yishni O‘zbekiston uchun nafaqat turizm xizmatlarida yangi yo‘nalish, balki xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni oshirishning yana bir imkoniyati sifatida ko‘rmoqdamiz.

Tadqiqotlar natijasida yashil turoperator tushunchasiga ekologik-iqtisodiy yondashuv asosidagi mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi. Shunday qilib, yashil turoperator — bu turizm bozorining institutsional ishtirokchisi sifatida xizmat qiluvchi, o‘z faoliyatini ekologik va huquqiy me’yorlar, xalqaro sertifikatlashtirish tizimlari hamda ijtimoiy mas’uliyatli boshqaruv prinsiplari asosida qat’iy yurituvchi, jamiyat manfaatlari va global ekologik talablar o‘rtasida muvozanat yaratishga intiluvchi, turistik xizmatlarni shakllantirish va realizatsiya qilish jarayonida ekologik samaradorlik, resurslardan tejamkorona foydalanish hamda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik tamoyillarini integratsiyalash orqali o‘zining biznes modelini shakllantiruvchi, sayyohlik talabini qondirish bilan bir qatorda tabiiy kapitalni saqlash, antropogen yuklamani kamaytirish hamda “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasiga mos turizm mahsulotlarini ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan ixtisoslashgan xizmat ko‘rsatish subyekti hisoblanadi.

Yashil turoperatorlarni shakllantirish jarayoni oddiygina yangi turistik firma tashkil etish yoki xizmatlar paketini kengaytirish emas, balki chuqur va ko‘p qirrali tizimli yondashuvni talab etuvchi, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik mezonlariga asoslangan kompleks transformatsion jarayon sifatida talqin etilishi mumkin. Ushbu jarayonning asosiy mohiyati shundaki, turizm sohasida xizmat ko‘rsatish amaliyoti nafaqat foyda olishga qaratiladi, balki atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ijtimoiy tenglikni ta’minlash va uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni kafolatlash kabi omillarni ham o‘z ichiga oladi. Ilmiy yondashuvimizdan kelib chiqib, mazkur jarayonni uch asosiy bosqichda ko‘rib chiqish mumkin: institutsional shakllanish bosqichi, xizmatlar tizimini “yashil”lashtirish bosqichi va barqaror rivojlanish mexanizmlarini joriy etish bosqichi.

Yashil turoperatorlarni shakllantirishning dastlabki bosqichi mustahkam institutsional asoslarni shakllantirish va mustahkamlash bilan bog‘liq bo‘lib, jarayon davlat, nodavlat tashkilotlar, xususiy sektor va xalqaro hamjamiyatning birgalikdagi tashabbuslari orqali amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda, birinchi navbatda, me’yoriy-huquqiy baza ishlab chiqiladi va turizm faoliyatining barqarorlik mezonlariga mos ravishda yangidan shakllantirilgan yoki mavjud bo‘lgan standartlar qayta ko‘rib chiqiladi.

Ikkinchi bosqichda turoperatorlar tomonidan taklif etilayotgan turistik xizmatlarning mazmuni va sifati ekologik barqarorlik mezonlari asosida tubdan qayta ko‘rib chiqiladi, turizm paketlarida transport, mehmonxonalar, ovqatlanish, madaniy dasturlar hamda boshqa xizmat turlarini ekologik talablar asosida moslashtirish nazarda tutiladi.

Bundan tashqari, yashash va ovqatlanish xizmatlari ham ekologik mezonlar asosida qayta yo‘naltirilib, mehmonxonalar va restoranlar bilan hamkorlikda energiya tejovchi texnologiyalar, qayta ishlanadigan materiallardan foydalanish va chiqindilarni ajratib yig‘ish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi. Masalan, 100 ta yashil turoperator bilan hamkorlik qiluvchi mehmonxonalar yiliga 1–4 million kVt-soat elektr energiyasini tejashi mumkin. Bu esa nafaqat atrof-muhitga foyda keltiradi, balki xizmatlar tannarxini pasaytirib, iqtisodiy samaradorlikni ham oshiradi. Xizmatlarni “yashil”lashtirish jarayoni, shuningdek, turistlarni ekologik madaniyatga o‘rgatish va ularni tabiiy muhitni asrashga yo‘naltirishni ham o‘z ichiga oladi. Tur paketlariga maxsus ekologik-ma’rifiy dasturlar, mahalliy ekologik loyihalarda volontyorlik faoliyati va tabiatni muhofaza qilish tadbirlari kiritiladi.

Uchinchi bosqichda yashil turoperatorlar o‘z faoliyatini barqaror rivojlanish tamoyillari asosida mustahkamlaydi va uni doimiy mexanizmlar bilan qo‘llab-quvvatlaydi. Bu bosqichning o‘ziga xos jihati shundaki, unda nafaqat xizmatlarni ekologiklashtirish, balki iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy tenglikni ta’minlash masalalari ham tizimli ravishda hal etiladi.

Shubhasiz, barqaror rivojlanish mexanizmlaridan biri mahalliy aholi bandligini oshirishdir. Yashil turoperatorlar o‘z faoliyatida 60–70 foizgacha gidlar, hunarmandlar, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari va boshqa xizmat ko‘rsatish subyektlarini mahalliy aholi orasidan qamrab olib, nafaqat iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytiradi, balki mahalliy aholi orasida turizm sohasiga bo‘lgan ijobiy munosabatni kuchaytiradi. Masalan, 50 ta yashil turoperator o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘ygan taqdirda, 5 yil ichida kamida 5 000 ta yangi ish o‘rni yaratilishi mumkin. Shuningdek, ekologik monitoring tizimining joriy etilishi ham ushbu bosqichning muhim qismi hisoblanadi. Bundan tashqari, yashil turoperatorlarning faoliyati global tendensiyalarga hamohang ravishda iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Tadqiqotlarga ko‘ra, sayyohlarning 35 foizi ekologik toza xizmatlar uchun ortiqcha to‘lovlarni amalga oshirishga monelik bildirmaydi. Demak, yashil turizm paketlari turoperatorlar daromadini kamida 15 foizga oshirishi mumkin. Natijada, 100 ta yashil turoperator faoliyatga kirishgan taqdirda, yiliga 35 ming tonna karbon chiqindisi kamayadi, eng kamida 5 000 ta yangi ish o‘rni yaratiladi va turistik xizmatlar eksporti o‘rtacha 120 million AQSh dollariga ko‘tariladi.

Yashil turoperatorlarni shakllantirish O‘zbekiston turizm sohasini ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik tamoyillari asosida modernizatsiya qilish jarayoni sifatida nafaqat ekologik foyda keltiradi, balki iqtisodiy raqobatbardoshlik va ijtimoiy samaradorlikni ta’minlab, xalqaro maydonda mamlakatimizning “yashil turizm brendi”ni shakllantiradi hamda Markaziy Osiyoda ekologik xavfsiz va barqaror turizm bo‘yicha yetakchi o‘rinni egallashiga imkon beradi.

Mazkur loyihani amalga oshirishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlar sifatida turoperatorlar faoliyatini yanada muvofiqlashtirish va qo‘llab-quvvatlash tizimlarini mustahkamlash, innovatsion xizmatlar hamda yangi texnologiyalarni joriy qilish, diniy turizm, ziyorat turizmi, halol turizm, yashil turizm va raqamli turizm xizmatlarini barqaror rivojlantirish, xalqaro tashkilotlar bilan chuqur hamkorlik aloqalarini kengaytirish orqali O‘zbekiston turizm brendini global miqyosda yanada muvaffaqiyatli targ‘ib etish, sifatli xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan standartlarni ishlab chiqish va sertifikatlash tizimini joriy qilishni keltirib o‘tish mumkin. Turoperatorlar innovatsion uyushmasining tashkiliy tuzilmasi borasidagi batafsil ma’lumotlar 2-jadvalda keltirilgan (2-jadval).

2-jadval. O‘zbekiston turoperatorlari uyushmasi tashkiliy tuzilmasi[4]

T/r	Bo‘limlar va lavozimlar	Shtat soni (kishi)	Asosiy vazifalar	Yillik byudjetdagi ulushi (%)	Yillik xarajatlar hajmi (mln so‘m)
1	Boshqaruv kengashi (Rahbar hamda 5 nafar a’zolar)	6	Strategik qarorlar qabul qilish, nazorat, xalqaro hamkorlik	5%	550
2	Ijro boshqaruv kengashi (Ijrochi direktor va 2 nafar yordamchilari)	3	Umumiy boshqaruv, loyiha va dasturlarni muvofiqlashtirish	8%	880
3	Innovatsiyalar va raqamlashtirish bo‘limi	10	Onlayn tizim, mobil ilova, ma’lumotlar bazasi, boshqa texnologik xizmatlar	20%	2 200
4	Sifat va standartlashtirish bo‘limi	6	Sertifikatlash, xalqaro standartlarga moslashtirish, audit tizimlari	10%	1 100
5	Marketing va xalqaro hamkorlik bo‘limi	8	PR, reklama, xalqaro ko‘rgazmalar, brend yaratish, investorlar bilan ishlash	15%	1 650
6	Moliyaviy-iqtisodiy bo‘lim	5	Byudjetni rejalashtirish, moliyaviy monitoring, hisob-kitob va soliq intizomi	8%	880
7	Ilmiy-tadqiqot markazi	12	Turoperatorlar uchun treninglar, ilmiy tadqiqotlar, innovatsion startaplarni qo‘llash	15%	1 650
8	Hududiy bo‘linmalar (14 viloyatdagi ofislarning har birida 2 nafardan xodim faoliyati)	28	Mahalliy loyihalarni amalga oshirish, a’zolar bilan faol ishlash, hududiy turizmni rivojlantirish	14%	1 540
9	Ma’muriy-texnik xodimlar (kotib, axborot texnologiyalari, inson resurslari va boshqa mutaxassis kadrlar)	7	Ish yuritish, inson resurslari, texnik xizmatlar	5%	550
Jami		85 kishi		100%	11 000

O‘zbekiston turoperatorlar uyushmasining vazifalari quyidagilardan tashkil topadi:

– turoperatorlar manfaatlarini himoya qilish;

– davlat organlari bilan hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash (turizm siyosatida turoperatorlar huquqlari, manfaatlari va majburiyatlari inobatga olinishi jarayonlarida faol ishtirok etish);

– turoperatorlik faoliyati standartlarini joriy etish;

4 Muallif ishlanmasi

– sohaga oid innovatsion yechimlarni tadbiq etib borish (smart turizm konsepsiyalarini rivojlantirish);
– xalqaro aloqalarni kuchaytirish;
– yashil va barqaror turizmni qo‘llab-quvvatlash (veloturlar, agro hamda eko turlar ishlab chiqilishini targ‘ib qilish va qo‘llab-quvvatlash);
– turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirishga hissa qo‘shish;
– turoperatorlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish va boshqalar.

Uyushma va a’zolari orqali har yili 1 000 dan ortiq yangi ish o‘rni yaratilishi ko‘zda tutilib, 2026–2031-yillarda umumiy 5 mingdan ziyod yangi ish o‘rinlari shakllantiriladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va 12 ta viloyat turizm imkoniyatlaridan kelib chiqib, har yili kamida 40 ta yangi tur shakllantiriladi va targ‘ibot qilinadi. Buning natijasida ichki turistlar soni yiliga o‘rtacha 150–200 ming nafarga ko‘payib, turoperatorlar aylanma mablag‘lari hajmi 25 % dan ziyodga oshishi kutilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, turoperatorlar faoliyatini rivojlantirishda raqamli marketing vositalaridan foydalanish zamonaviy biznesning ajralmas omiliga aylangan. Raqamli texnologiyalarni joriy etish korxonalarga marketing xarajatlarini kamaytirish, mijozlar bilan aloqani real vaqt rejimida olib borish, ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish va brend raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Shuningdek, sun’iy intellekt, avtomatlashtirish va analitik platformalardan foydalanish korxonalarning innovatsion rivojlanish salohiyatini kuchaytiradi. Shu sababli, raqamli marketing vositalarini tizimli yo‘lga qo‘yish korxonalar uchun muhim ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

Muallif tomonidan ilgari surilayotgan takliflar:

1. Turoperatorlar miqyosida raqamli marketing strategiyasini ishlab chiqish va uni biznes-rejalarga integratsiya qilish zarur.
2. Marketing jarayonlarida sun’iy intellekt, avtomatlashtirilgan tizimlar va analitik platformalarni joriy etish tavsiya etiladi.
3. Davlat miqyosida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish dasturlari doirasida marketing texnologiyalarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq.
4. Korxonalar raqamli kanallar, ya’ni ijtimoiy tarmoqlar, e-mail marketing, kontent marketing orqali brend ishonchliligini mustahkamlash va mijozlar bilan interaktiv aloqani rivojlantirishga e’tibor qaratishlari tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aguiló E., Alegre J., Sard M. Examining the market structure of the German and UK tour operating industries through an analysis of package holiday prices //Tourism Economics. – 2003. – T. 9. – №. 3. – C. 255-278.
2. Christou, P., Farmaki, A., & Evangelou, G. (2018). Nurturing nostalgia?: a response from rural tourism stakeholders. Tourism Management, 69, 42–51.
3. Collins S., Sweeney A. E., Geen A. G. Training for the UK tour operating industry: advancing current practice //Tourism Management. – 1994. – T. 15. – №. 1. – C. 5-8.
4. Goffi G., Masiero L., Pencarelli T. Rethinking sustainability in the tour-operating industry: Worldwide survey of current attitudes and behaviors //Journal of cleaner production. – 2018. – T. 183. – C. 172-182.
5. Goffi G., Masiero L., Pencarelli T. Rethinking sustainability in the tour-operating industry: Worldwide survey of current attitudes and behaviors //Journal of cleaner production. – 2018. – T. 183. – C. 172-182.
6. Ioannides D. Tour operators: the gatekeepers of tourism //The economic geography of the tourist industry. – Routledge, 1998. – C. 155-174.
7. Koutoulas, D. (2006). The Market Infl uence of Tour Operators on the Hospitality Industry: The Case of Greek Resort Hotels. In: Papatheodorou, A. (ed.). Corporate Rivalry and Market Power: Competition Issues in the Tourism Industry. London: I.B. Tauris Publishers. 94-123.
8. Mottiar, Z., Boluk, K., & Kline, C. (2018). The roles of social entrepreneurs in rural destination development. Annals of Tourism Research, 68, 77–88.
9. S. Hossain, M.A. Hussain, T. Ahmed. The Role of Travel Agencies and Tour Operators in the Development of the Tourism Sector: An Empirical Study on Bangladesh. 26 May 2025-American journal of tourism and hospitality; A. Calveras. What Do Tour Operators Do? Internet and the Economics of Intermediation in the Tourism Industry 5 Sep 2007-Social Science Research Network
10. Š. Šimleša. Suvremeni trendovi u poslovanju turoperatora. Dissertation. 17 Sep 2019.
11. Sheldon P. J. The tour operator industry: an analysis //Annals of tourism research. – 1986. – T. 13. – №. 3. – C. 349-365; Dale C. The UK tour-operating industry: A competitive analysis //Journal of Vacation Marketing. – 2000. – T. 6. – №. 4. – C. 357-367.
12. Trunfio, M., Petruzzellis, L., & Nigro, C. (2006). Tour operators and alternative tourism in Italy: Exploiting niche markets to increase international competitiveness. International Journal of Contemporary Hospitality Management, 18(5), 426–438.

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

2026. № 2

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz